

**CHET TILLARINI O'RGANISHNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA  
TA'SIRI MAVZUSIDA YOZGAN ILMIY MAQOLASI.**

**QOBILOV JAMSHID BAXTIYOR O'G'LI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
pedagogika fakulteti pedagogika yo'nalishi  
2-bosqich 8-p-2022 guruh talabasi*

**MOHINUR QAYUMOVA MURODULLAYEVNA**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili  
fani o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

**SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** hozirgi kunda yoshlar chet tillarini qanchalik darajada o'rganishmoqda. bu jarayon yoshlar ongiga va ma'naviyatiga qay darajada t'sir qilmoqda. chet tillarini bilish orqali qanday imkoniyatlarga ega bo'lishmoqdalar maqolada shularni ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'z:** o'rganish, tafakur, ingliz tili, savodxonlik, grammatika, lug'at

**Аннотация:** в какой степени сегодня молодые люди изучают иностранные языки, как этот процесс влияет на сознание и духовность молодых людей, и какие возможности они имеют, изучая иностранные языки, это мы и рассмотрим в статье.

**Ключевые слова:** обучение, мышление, английский язык, грамотность, грамматика, словарный запас.

**Abstract:** to what extent are young people learning foreign languages today, how does this process affect the minds and spirituality of young people, and what opportunities do they have by learning foreign languages, we will consider this in the article.

**Key words:** learning, thinking, English, literacy, grammar, vocabulary

**Kirish** Ushbu maqolada O'zbekistonning zamonaviy ta'lim jamiyatini shakllantirish sharoitida chet tillarini o'qitish tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Chet tillarni o'qitishning ahvoli nafaqat o'qitishning metod va usullariga, balki dastur, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va o'quv-uslubiy majmualarning sifatiga ham bog'liq, deb hisoblaymiz. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini talablarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston Respublikasining

birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012- yil 13- dekabrda PQ1875 -sonly qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmonida ham ta'lim va ilm fan sohalarini rivojlantirish borasida ham alohida urg'u beriladi. Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy - texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv - metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Innovatsion texnologiyalarni darsda qo'llash haqida so'z ketar ekan dars haqida tushunchaga ega bo'lishimiz kerak.

### Asosiy qism

Bugungi kunda har bir insonning xorijiy tillarni bilishi muhim hisoblanadi. Globallashuv davrida bu zamon talabi bo'lib qolayotir. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbir va uchrashuvlarni muntazam tashkil etish an'anaga aylangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa yoshlarning o'zaro fikr almashinuvi, egallagan bilimlarini yanada mustahkamlashlari nazarda tutilgan.

E'tirof etish joizki, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida yoshlarni xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Talabalar uchun mahorat darslari, o'quv kurslari, turli uchrashuvlar o'tkazilmoqda. E'lon qilingan ko'plab chora-tadbirlar Prezidentning «Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topdi. Biroq, xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirishga urinishlar bir qancha vaqt oldin — Birinchi Prezidentning 2012 yil 10 dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi keng ko'lamlı qarori asosida ham amalga oshirilgan edi. O'sha davr matbuotida bot-bot ko'zga tashlangan «ushbu qarorning muvaffaqiyatli hayotga tatbiq qilinayotganligi» to'g'risidagi «ajoyib» ma'ruzalar va hisobotlarga qaramay, haligacha, davlat rahbarining matbuot xizmati xabar berishicha, «joylardagi ahvol maqsad qilingan katta rejalarga mos emas». Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, lisey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim, – dedi Shavkat Mirziyoev.

Toshkent davlat jahon tillari va Sharqshunoslik universitetlari, Samarqand chet tillari instituti bilan bir qatorda, har bir viloyatda bittadan universitet chet tillari bo'yicha tayanch muassasa sifatida belgilanadi.

Davlatimiz rahbari o'qituvchilarga munosib sharoit yaratish, malakasiga qarab ularni rag'batlantirish zarurligini ta'kidladi.

Keyingi uch yil davomida maktablardagi 53 ming nafar chet tili o'qituvchilarining barchasi xalqaro sertifikat olishi zarurligi ta'kidlandi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, maktablardagi vakant o'rinlarni malakali mutaxassislar bilan to'ldirish vazifasi qo'yildi.

Chet tillarini chuqur o'rgatish maqsadida tuman va shaharlarda 207 ta maktab tanlab olindi. Ushbu maktablarda xorijiy kitoblar, ilg'or o'quv dasturlari va metodikalaridan erkin foydalanish hamda fanlarni chet tilida o'qitish yo'lga qo'yiladi. Viloyat hokimliklariga maktablarda chet tilini o'qitish sifatini oshirish uchun mahalliy byudjetdan har bir tuman va shaharga 1 milliard so'mdan mablag' ajratishga ko'rsatma berildi. Mana shunday sharoitlardan foydalanib bugungi kun yoshlari chet tillarini mukammal darajada o'rganib bormoqdalar. Yurtboshimiz barcha yoshlarning chet tillarini bilishi uchun hatto chekka hududlarda ham chet tilini o'qitish uchun maktablar tashkil etmoqdalar. Chet tilini bilish zarurligiga hech kim shubha qilmaydi. Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish ayniqsa moda hisoblanadi. Ota-onalarning bunday istagining sababi aniq, chunki agar ilgari chet elga chiqish imkoniga ega bo'lmagan bolalar chet tilini bilishga muhtoj bo'lmasa, bugungi vaziyat juda o'zgargan. Bola ingliz tilida filmlarni tomosha qilish, Skype orqali ingliz tilida muloqot qilish va albatta kelajakda nufuzli ishga kirish uchun tilni bilishi kerak.

Chet tilini bilmasdan bolaga tez orada ingliz tilisiz nafaqat oddiy erkin hayotni, balki chet elda dam olishni ham tasavvur qilishning iloji bo'lmaydigan dunyoga moslashish qiyinroq bo'ladi. Buni inobatga olgan holda va o'z farzandiga kelajakda albatta yordam beradigan narsani berishni xohlayotgan holda, ko'plab ota-onalar chaqaloqqa tug'ilgandan boshlab ingliz tilini o'rgatishga harakat qilishadi. Xo'sh, agar ota-onaning o'zi ingliz tilida ravon gapira olsa, unda u chaqaloqqa ingliz tilini o'zi qo'shimcha xarajatlarsiz o'rgatish imkoniyatiga ega. Masalan, ingliz tilida gapirish yoki musiqa tinglash. Ammo o'zlari ingliz tilida hech narsa deya olmaydigan ota-onalar haqida nima deyish mumkin? Farzandlariga ingliz tilini qanday va qachon o'rgatishni boshlashlari kerak?

Bolalarga faqat o'z manfaatlari uchun emas ularga bu bilan ko'plab ishlar qilishini o'z bilimini boyitishini yaxshi kasblarda ishlashini, o'rgatish kerak. Yoshlikdan chet tilini o'rganishga davat etish kerak.

### Xulosa

Bugungi kunning talabi bo'lib kelayotgan mavzu yoshlarga chet tillarini o'rgatish. Har bir Ota ona bolasiga bilim berib boshlagandan unga chet tilini ham

o'rgatib boshlasa bola ulg'ayganda qiynalmaydi. Bolalarning ma'naviyatini tafakkurini bilimga boyitib kitobga oshno qilib borish kerak bo'ladi. Yoshlar qanchalik bilimli va dono bo'lsa jamiyat davlat ham qudratli va kuchli bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Nabievna, N. D. (2021). The importance of interactive games in english language teaching and their impact on the teaching process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1086-1089.
2. Nabievna, N. D. (2021). The Essence of Upbringing and Preservation of Traditions in Uzbek Families. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(4), 54-56.
3. Jalilov J. Chet tili o'qitish metodikasi, Toshkent .2012
4. Zaripov R.A. O'zbek maktablarida chet tili o'qitish metodikasining asosiy yo'nalishlari, O'qituvchi-1979.
5. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." *ИнтерНаука* 28 (2018): 77-79.
6. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 59-61.
7. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." *Science and Education* 2.6 (2021): 494-498.